

BADIIY ASARDA ANTONIMLARNING O'ZIGA XOS LEKSIK-GRAMMATIK XUSUSIYATLARI (Antuan De Sent Ekzyuperining "Kichkina shahzoda" kitobi misolida)

*Ilmiy rahbar: NDPI xorijiy tillar
fakulteti o'qituvchisi M.T. Gapparova
4-kurs talabasi S.Sh.Toshtemirova*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tilidagi antonim so'zlarning badiiy uslubda qo'llanilishi va uning leksik-grammatik xususiyatlari taniqli ingliz adibi Antuan De Sent Ekzyuperining "Kichkina Shahzoda" kitobi misolida ko'rib chiqilgan. Shuningdek, barcha fikrlar misollar orqali tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: badiiy bo'yoqdorlik, antonim, leksema, Antuan De Sent Ekzyuperining, "Kichkina Shahzoda", maqol, badiiy vosita, zid ma'noli.

Abstract: In this article, the use of antonyms in the English language in artistic style and its lexical-grammatical features are explored on the example of the book "The Little Prince" by the famous English writer Antoine de Saint Exupery. Also, all points are analyzed through examples.

Key words: artistic painting, antonym, lexeme, "The Little Prince" by Antoine De Saint Exupery, proverb, artistic tool, opposite meaning.

Аннотация: В данной статье на примере книги «Маленький принц» известного английского писателя Антуана де Сент-Экзюпери анализируются употребление антонимов в английском языке в художественном стиле и его лексико-грамматические особенности. Также все моменты разбираются на примерах.

Ключевые слова: художественная живопись, антоним, лексема, «Маленький принц» Антуана де Сент-Экзюпери, пословица, художественный инструмент, противоположное значение.

ma-qarshi tushunchalarni ifodalaydigan so'zlar, ya'ni ma'nosi bir-biriga zid bo'lgan

s
o
,

Qizig'i shundaki, to'g'ri ismlar, olmoshlar va raqamlar antonimlarga ega emas. Antonimik juft hosil bo'lishi uchun ikkita mustaqil tushuncha - ma'no jihatdan o'zaro qarama-qarshi bo'lishi kerak. Antonimlik ikkita til birligi orasidagi munosabatga asoslanib, bularning biri ikkinchisiga nisbatan zid ma'noli bo'lib, antonimik juftni hosil etadi. Demak, sinonimiyada ikki va undan ortiq til birligi qatnashib, ular bir voqealikni nomlaydi. Antonimlik munosabatda esa ikki til birligi qatnashib, biri ikkinchisining aksi bo'lgan voqealikni ifodalaydi. Antonimlar juft holda qo'llanib ma'noni kengaytiradi. Biz maqollarda antonimlarga ko'p duch kelamiz, masalan yaxshi so'z jon ozig'i, yomon so'z jon qozig'i maqolini tahlil qilsak, yaxshi va yomon



hamda oziq va qoziq so'zlari bir biriga qarama qarshi bo'lib kelmoqda. Yaxshi va yomon so'zlari bir biriga ma'no jihatdan to'liq antonim hisoblansa, oziq va qoziq so'zlari esa maqolning ma'nosidan kelib chiqib, qisman antonimlar hisoblanadi. Shuningdek, barchamizga ma'lumki yozuvchi badiiy asar yaratishda asarning mazmundorligi va emotsionalligini oshirish maqsadidav turli xil badiiy vositalardan foydalanadi. Antonimlar ham badiiy asarning hissiy bo'yodorligi va ta'sirchanligini oshirishda yozuvchilar tomonidan keng foydalaniladigan badiiy vositalardan biri hisoblanadi. Barcha kitobsevarlar tomonidan sevib o'qilgan Antuan De Sent Ekzyuperining "Kichkina Shahzoda" kitobi misolida antonimik xususiyatga ega bo'lgan so'zlarning leksik-grammatik xususiyatlarini ko'rib chiqamiz.

The grown-ups discouraged me in my painter's career when I was six years old, and I never learned to draw anything, except boas from the **outside** and boas from the **inside**. [1]

Ushbu parchadan ko'rishimiz mumkinki, yozuvchi tomonidan **outside**— tashqi hamda **inside** — ichki kabi sifat so'z turkumiga oid so'zlardan foydalangan holda antonimlik hodisasini vujudga keltirilmoqda. Ushbu so'zlarni leksik-grammatik jihatdan quyidagicha tahlil qilishimiz mumkin.

- **Outside**— tashqi leksemasining ma'nosi biror bir narsaning tashqi tomonini, tashqi yuzasini nazarda tutsa, **inside** — ichki leksemasining ma'nosi esa biror bir narsaning ichki qismi ekanligini anglatadi.

- Ma'nolariga ko'ra: **outside**— tashqi va **inside** — ichki to'la antonimlik hosil qilmoqda.

- Tematik guruhiga ko'ra: **outside**— tashqi va **inside** — ichki so'zlari joyini bildiruvchi antonimlar sanaladi.

- Shakliga ko'ra: **outside**— tashqi va **inside** — ichki antonimlari deyarli bir xil o'zakli antonim so'zlar hisoblanadi.

- Tuzilishiga ko'ra: **outside**— tashqi va **inside** — ichki so'zlarning ikkalasi ham yasama antonimlar hisoblanadi.

- So'z turkumlari nuqtayi nazaridan qaraganda **outside**— tashqi va **inside** — ichki so'zlari sifat so'z turkumiga mansub antonim so'zlar hisoblanadi.

Indeed, as I learned, there were on the planet where the little prince lived as on all planets **good** plants and **bad** plants. Gapdagi good va bad so'zlari tub antonimlar hisoblanib, ma'no jihatidan to'liq antonimlikni hosil qilgan. Yuqorida keltirilgan misollardan va tahlillardan ko'rishimiz mumkinki, yozuvchi ushbu parchada ma'no jihatidan to'liq antonim bo'lgan so'zlardan foydalangan. Ammo badiiy asar yozish jarayonida yozuvchi ma'no jihatidan qisman antonim bo'lgan so'zlardan ham foydalanishi mumkin. Misol uchun qattiq odam va saxiy odam bir biriga antonim hisoblanadi, faqatgina ana shunday bir biriga zid qilib qilib foydalanilganda, ya'ni kontekstdan kelib chiqib biz ularni antonim deya olamiz. Aslida esa qattiq va saxiy

so'zlari umumiy olganda antonim bo'la olmaydi, qattiq so'zining antonimi yumshoq so'zi bo'lsa, saxiy so'zning zid ma'noli jufti baxil bo'ladi. Demak kontekstdan kelib chiqib ham so'zlardan antonimlar sifatida foydalansak bo'ladi.

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, keltirilgan misollarda badiiy asarning ta'sirchanligini va hissiy bo'yoqdorligini oshirishda barcha stilistik vositalar metonimiya, metafra, sinekdoxa kabi, antonimlar ham muhim ahamiyatga ega ekan. Umuman olganda badiiy uslubda antonimlar zidlantirish (antiteza) vositasi hisoblanadi. Ushbu vositadan buyuk ingliz adibi Antuan De Sent Ekzyuperi ham o'z asarlarida mahorat bilan foydalanganligini ko'rishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Antoine De Saint-Exupery «The Little Prince».
2. Rasulov R. Umumiy tilshunoslik. — Toshkent, 2010.